FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BERKINOV OYBEK TOXIR O‘G‘LI

KIBERMAKON VA IJTIMOIY HAYOT: FALSAFIY-FUNKSIONAL TAHLIL

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K 004.738;101(043)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation on Philosophical Sciences

Berkinov Oybek Toxir o‘g‘li
Kibermakon va ijtimoiy hayot: falsafiy-funksional tahlil.....3

Беркинов Ойбек Тохир угли
Киберпространство и социальная жизнь: философско-функциональный анализ.....21

Berkinov Oybek Tokhir ugli
Cyberspace and social life: a philosophical-functional analysis…….....…….....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....46

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BERKINOV OYBEK TOXIR O‘G‘LI

KIBERMAKON VA IJTIMOIY HAYOT: FALSAFIY-FUNKSIONAL TAHLIL

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1135 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasida (fdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Gaffarova Gulchehra G‘ulamjanovna** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Siddiqov Ilyosjon Bahromjonovich** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
	Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonqulovich falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.F.10.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “27” 11 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-44-02; Faks: (99873) 244-44-93; Veb-sayt: www.fdu.uz, e-mail: fardu_info@umail.uz; Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti binosi, 2-qavat, 219-xona).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel./faks: (99873) 244-44-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “16” 11 da tarqatildi.
(2026-yil “16” 11 dagi 36 raqamli reyestr bayonnomasi.)

M.A.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

B.S.Ganiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

S.U.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamlashuv va virtual reallikning keng yoyilishi an’anaviy ijtimoiy institutlar transformatsiyasini tezlashtirib, kibermakon va ijtimoiy hayot munosabatlarining tizimli qonuniyatlarini ochib berishni taqozo etmoqda. Rivojlangan davlatlarda an’anaviy ijtimoiy institutlarning raqamli platformalarga transformatsiyalashuvi, inson omili va uning virtual makondagi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan kompleks, funksional va innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur jarayonlar raqamli jamiyat sharoitida shaxs ijtimoiylashuvi, virtual anomiya, madaniy deformatsiya va kibertahdidlarning oldini olishda innovatsion va funksional yondashuvlarning ilmiy asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatmoqda. Natijada, kibermakonning jamiyat hayotidagi funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, uning ijtimoiy strukturalarga ta’sirining ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlash hamda raqamli muhitda shaxs rivojlanishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarbligini belgilaydi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida kibermakon va ijtimoiy hayot munosabatlari, raqamli muhitda shaxs faoliyatini tartibga solish hamda axborot manipulyatsiyasi, madaniy deformatsiya va virtual anomiyaning oldini olish ustuvor yo‘nalish sifatida tadqiq etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda raqamli gumanizm prinsiplarini singdirish, ta’lim va mafkuraviy immunitet orqali axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilmoqda[1]. Shu bilan birga, kibermakonning destruktiv funksiyalarini jilovlashda davlat, fuqarolik jamiyati va raqamli platformalarning ko‘p tarmoqli hamkorligi (Multi-stakeholder approach) samaradorligi asoslanmoqda[2]. Bu esa virtual muhitda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning innovatsion ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida ijtimoiy hayotni raqamlashtirish, milliy ma’naviy makon barqarorligini ta’minlash va jamiyat rivojida inson omilini yuksaltirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur kontekstda, kibermakonning jamiyat ijtimoiy strukturalariga ta’sirining ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlash, milliy mentalitet va ma’naviy qadriyatlar kontekstida virtual muhitni ijtimoiy-funksional tartibga solishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Buning uchun esa global tarmoq muhitida inson faoliyati va ijtimoiylashuv jarayonlarini chuqur falsafiy-funksional tahlil qilish, yoshlar ongini virtual makondagi mafkuraviy xavf-xatarlardan himoya qilish hamda samarali raqamli madaniyatni shakllantirish tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugun jahonda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplaridan chekinish, xavf-xatar va tahdidlar yechimiga biryoqlama qarash kabi holatlar kuzatilmoqda. Shuningdek, aksariyat hollarda adolat, o‘zaro hurmat, tenglik, hamkorlik va hamjihatlik tamoyillariga panja

[1] Werthner H., Prem E. et al. Perspectives on Digital Humanism. – Springer Open, 2022. – P. 3-15.
[2] Dutton W.H. Society on the Line: Information Politics in the Digital Age. – Oxford University Press, 1999. – P. 312.

ortidan qarash holatlari hamda o‘zaro ishonch, bir-birini tushunish, ochiq va konstruktiv muloqot bobida inqiroz kuzatilmoqda”[3]. Ana shu holatlardan kelib chiqib, kibermakonning transchegaraviy xususiyati va insonning ijtimoiy hayotiga transformatsiyalovchi ta’siri bilan bog‘liq muammolarni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tadqiq etish, milliy ijtimoiy makon barqarorligini ta’minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa tadqiqot mavzusining zamonaviy falsafa fani, ijtimoiy barqarorlik va amaliyot uchun o‘ta dolzarb hamda muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son, 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son, 2017-yil 8-sentabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-444-son qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “„Raqamli O‘zbekiston – 2030“ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son, 2023-yil 11-sentabrdagi “„O‘zbekiston – 2030“ strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2026-yil 10-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-38-son farmonlari, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori hamda ushbu faoliyat sohasiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kibermakon va ijtimoiy hayotning o‘zaro munosabatlari, raqamli reallikning funksional va antropologik xususiyatlari ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida keng tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarni uch guruhga – xorijiy mamlakatlarda, MDH mamlakatlarida va O‘zbekistonda o‘rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda postindustrial va axborotlashgan jamiyat poydevorini yaratgan D.Bell, E.Toffler, J.Bodriyyar kabi klassik faylasuflar, shuningdek, kibermakonning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri, raqamli identifikatsiya, axborot xavfsizligi, raqamli tengsizlik va axloqiy masalalarni hamda kibermakonning tarmoqli tuzilmasini asoslab bergan M.Kastels, M.Maklyuen, S.Turkle, L.Floridi, Y.Benkler, Z.Bauman va raqamli kapitalizm davrini tahlil qilgan Sh.Zubofflarning qarashlari poydevor hisoblanadi[4].

[3] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 17-18.

[4] Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1999. – P. 616.; Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: АСТ, 2010. – С. 800.; Baudrillard J. Simulacres et Simulation. – Paris: Galilée, 1981. – P. 235.; Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Volume 1: The Rise of the Network Society.

Xususan, J.Bodriyyarning “simulyakr” (asli yo‘q nusxa) konsepsiyasi kibermakondagi ijtimoiy hayotni tushunish uchun muhim ontologik kalitdir. Raqamli muhitda ijtimoiy munosabatlar tez-tez real mazmundan uzilib, virtual obrazlar va soxta realliklar (simulyatsiyalar) ustiga qurilmoqda[5]. Ushbu konsepsiyaga suyanib, kibermakonning ijtimoiy hayotdagi transformatsiyalovchi funksiyasi tahlil qilinadi: virtual reallik real ijtimoiy institutlarning o‘rnini qanday egallayotgani falsafiy baholanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi makonida kibermakondagi shaxs identifikatsiyasi, virtual anomiya va axborot xavfsizligi muammolari I.S.Ashmanov, I.V.Chernikova, D.V.Ivanov, V.A.Sergo, O.V.Shlikova kabi tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik jihatdan o‘rganilgan. Masalan, I.V.Chernikovaning yondashuvi texnologiya va jamiyatning evolyutsion uyg‘unligini ochib beradi[6].

MDH davlatlaridan D.E.Dobrinskaya, N.V.Kardava, M.V.Miguleva, V.A.Emelin, V.A.Sapryka, V.N.Yaxno, E.S.Stepanenko, A.I.Loiko, Ya.S.Yaskevich, A.A.Ovakimyan, A.T.Valiaxmetova, E.Yu.Axmedov, I.A.Efremova, S.V.Sokolovskiy, V.A.Pleshakov kabi olimlar[7] tomonidan kibermakonni ijtimoiy-madaniy jihatdan odamlarning kundalik turmushi, madaniy almashinuv va kommunikatsiya shakllarini tubdan o‘zgartiruvchi fenomen sifatida; siyosiy-huquqiy jihatdan milliy va xalqaro siyosat uchun yangi xavf-xatar va imkoniyatlar maydoni sifatida; falsafiy jihatdan insonning ontologik maqomi, gnoseologik qobiliyatlari va jamiyatdagi rolini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘luvchi makon sifatida; texnik-axborot xavfsizligi jihatidan MDHda milliy kiberxavfsizlik strategiyalari, axborot hujumlariga qarshi chora-tadbirlar va regulyatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilgan.

Biroq MDH olimlari tadqiqotlarida kibermakon ko‘proq yoki texnik tahdid, yoki axborot almashinuvi maydoni sifatida baholangan. Bizning tadqiqotimiz esa ushbu bo‘shliqni to‘ldirib, kibermakonni jamiyatning alohida ijtimoiy substrati (asosi) sifatida, uning ijtimoiy hayot bilan dixotomik (ijobiy va salbiy faoliyatlar muvozanati) aloqasini strukturaviy-funksional tahlil metodi orqali tizimlashtiradi.

Oxford: Blackwell Publishers, 1996. - P. 556.; Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. - New York: Basic Books, 2011. - P. 360.; Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. - Oxford: Oxford University Press, 2014. - P. 272.; Benkler Y. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. - New Haven: Yale University Press, 2006. - P. 528.; Bauman Z. Liquid Modernity. - Cambridge: Polity Press, 2000. - P. 240.; McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964.; Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. – New York: PublicAffairs, 2019.

[5] Бодрийяр Ж. Симулякр ва симуляция (А.Исобоев таржимаси) – Тошкент: “Trust and support”, 2026. – Б. 11-12.

[6] Черникова И.В. Философия техники и научно-технического развития. – Томск: Издательский Дом Томского государственного университета, 2017. – С. 112-115.

[7] Добринская Д.Е. Киберпространство: территория современной жизни // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. – 2018. – Т. 24. – № 1. – С. 52-70.; Мигулева М.В. Киберпространство как социальный институт: признаки, функции, характеристики // Дискурс-Пи. – 2020. – № 4 (41). – С. 199-212.; Яхно В.Н. Эволюция содержания понятий «виртуальная реальность» и «киберпространство» // Вестник Томского государственного университета. – 2010. – № 336. – С. 43-47.; Плешаков В.А. Киберонтология и психология безопасности информационной сферы // Вестник ПСТГУ. Серия IV: Педагогика. Психология. – 2010. – № 4 (19). – С. 131-141.

Milliy falsafamizda globallashuv sharoitida virtual tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlar virtual madaniyati va axborot xavfsizligi masalalari G.G‘affarova, A.Tulyayev, M.Abdullayeva, S.Yazdonova[8] kabi faylasuf olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, S.K.Yazdonova monografiyasida zamonaviy jamiyatda internet va kibermakonning yoshlar ta’lim-tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri, kibermakonning yo‘nalishlari, atributlari va uning shaxs shakllanishiga ta’siri, globallashuv davrida ta’lim va tarbiya jarayoniga to‘siq bo‘layotgan salbiy omillar, “kiber tahdid” va uning ijtimoiy oqibatlari hamda zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri tahlil etilgan[9].

J.Ramatov va boshqa milliy faylasuflarimiz tomonidan kibermakonning mafkuraviy va tarbiyaviy jihatlari, xususan, yoshlar ongiga ta’siri o‘rganilgan[10] bo‘lsa-da, mazkur muammo milliy transformatsiyalar sharoitida yaxlit “kibermakon – ijtimoiy hayot” tizimi sifatida, uning funksional deformatsiyalari (inqirozlari) va konstruktiv imkoniyatlari kontekstida tadqiq etilmagan.

O‘zbekiston olimlari N.T.Qarshiyeva[11], Sh.T.Pirimova[12], A.Nurmatov[13] kabi tadqiqotchilar tomonidan kibermakonning xavfsizlik, huquqiy tartibga solish, so‘z erkinligi, jurnalistik jarayonlar va madaniy kommunikatsiya kabi muhim jihatlari o‘zaro uyg‘unlikda tahlil qilingan. Shu bilan birga, F.A.Batirov kibertahdidning jamoat xavfsizligiga ta’siri va uning oldini olishning ma’naviy-axloqiy omillari, kibertahdidlar genezisi, ijtimoiy-madaniy hayotga ta’siri, komparativistik tahlil asosida kibertahdidlarning axloqiy-falsafiy jihatlarini o‘rgangan[14].

E.S.Karimov esa o‘z tadqiqotlarida kiberbullingning yoshlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga ta’sirini, uning universal-ontologik o‘lchovlari, kiberbulling hodisasiga qarshi kurashishda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rnini yoritib bergan[15]. Shuningdek, S.K.Yazdonova doktorlik tadqiqotida barqaror ta’lim va tarbiya jarayonini milliy mentalitetga mos ravishda tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishning pragmatik vositalarini asoslagan[16].

---

[8] G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari: fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. –Toshkent: O‘zMU, 2019. – B. 49.; Tulyayev A.I. Virtual olamning axloqiy muammolari (falsafiy tahlil): fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – 43 B.; Abdullaeva M.Z. Kibermakon va islom bilan bog‘liq diniy-ma’naviy jarayonlar: tar. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent, 2020. – B. 16.; Yazdonova S.K. Zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri: avtoref. dis. ...fals. fan. dok. – Samarqand, 2024. – 59. B.

[9] Yazdonova S.K. Zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri. (Monografiya) - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – B. 183.

[10] Раматов Ж.С. Глобаллашув шароитида ёшлар мафкуравий иммунитетини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2022. – Б. 89-91.

[11] Qarshieva N.T. O‘zbekistonda kiberxavfsizlik: raqamli iqtisodiyotni himoya qilish // Iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy raqobatbardoshlik xalqaro jurnali, jild.1, №6, 2024. – B. 53-61.

[12] Pirimova Sh.T. Kiber makonda OAV so‘z erkinligini ta’minlashning xavfsizlik tizimi // Yangi O‘zbekiston... ilmiy-amaliy to‘plami, 2024. № 4(21), – B. 471-476.

[13] Nurmatov A. Zamonaviy kiber-makon va unda sotsial tarmoqlarning jurnalistika fenomeni sifatidagi kelishuv // O‘zbekistonda xorijiy tillar elektron jurnali, 2015. №2(6). - B. 118.

[14] Batirov F. Kibertahdidning jamoat xavfsizligiga ta’siri va uning oldini olishning ma’naviy-axloqiy omillari: fals. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) … dis. avtoref. - Toshkent: Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, 2025. - B. 54.

[15] Karimov E.S. Kiberbullingning yoshlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga ta’siri: avtoref. dis. ...fal. fan. bo‘y. fals. dok. – Andijon, 2024. - 50 B.

[16] Yazdonova S.K. Zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri: avtoref. dis. ...fals. fan. dok. (DSc) – Samarqand, 2024. – B. 59.

Sh.Sh.Rajabovning ilmiy tadqiqoti shaxs estetik ehtiyojlarining kibermakondagi transformatsiyasi jarayonlarining falsafiy jihatlarini ochib berishga qaratilgan[17].

Mavjud ilmiy adabiyotlarda kibermakon yoki sof texnologik fenomen (informatika, huquq), yoki faqat yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi tashqi omil sifatida baholanib kelingan. Ushbu dissertatsiya ishi esa kibermakonni kundalik ijtimoiy hayotning ajralmas tizimli qismi sifatida e’tirof etib, uning jamiyat ijtimoiy strukturasida bajaruvchi yangi funksiyalarini (kommunikativ, aksiologik, destruktiv va sotsiallashtiruvchi) innovatsion falsafiy-funksional metod orqali ochib berishi bilan mavjud tadqiqotlardan sifat jihatidan farq qiladi va o‘ziga xos ilmiy yangilik kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma’naviy-axloqiy xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyalarining ahamiyati” (2022-2026-yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning obyekti sifatida kibermakon fenomeni va uning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-falsafiy jarayonlarga ko‘rsatadigan ta’siri hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida kibermakonning falsafiy-funksional tahlili, uning shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi roli hamda ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi global raqamli transformatsiya sharoitida kibermakon fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va tahdidli xususiyatlarini konseptuallashtirish, uning jamiyat hayoti tizimlariga ta’sirini funksional tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

“kiber” va “makon” tushunchalarining falsafiy mohiyati va shakllanish tarixini ochib berish asosida kibermakonning ontologik, gnoseologik va aksiologik xususiyatlarini tizimli konseptuallashtirish;

kibermakonning jamiyat hayoti tizimlariga (siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy) transformatsion ta’sirini hamda oila, ta’lim va axborot muhiti misolida an’anaviy ijtimoiy institutlar funksiyalarining o‘zgarishini aniqlash;

shaxs va jamiyat ijtimoiylashuvi jarayonida kibermadaniyatning rolini ko‘rsatish, kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanish sabablarini, kiberjinoyatchilik va kiberterrorizmning obyektiv asoslarini falsafiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

xalqaro tajribani umumlashtirgan holda kibermakonda ijtimoiy barqarorlik va kiberxavfsizlikni ta’minlashning samarali strategik yo‘nalishlarini o‘rganish hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash.

[17] Rajabov Sh.Sh. Shaxs estetik ehtiyojlarining kibermakondagi transformatsiyasi: Fals. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) … dis. avtoref. – Toshkent, 2023. - B. 51.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kibermakon va ijtimoiy hayot munosabatlarini o‘rganishda strukturaviy-funksional tahlil, tizimlilik, sinergetik yondashuv, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, aksiologik (qadriyatli) yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, kontent-analiz hamda virtual muhitni kuzatish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy borliqning virtuallashuvi kontekstida “kibermakon” fenomenining onto-aksiologik maqomi konseptuallashtirilib, uning texnik substrat emas, balki inson kundalik hayoti, bilish jarayonlari va qadriyatlar tizimini belgilovchi yangi ijtimoiy voqelik (raqamli sotsio-makon) ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan;

kibermakon ta’sirida an’anaviy ijtimoiy institutlar (oila, ta’lim, ma’naviyat) funksiyalarining transformatsiyalashuv qonuniyatlari ochib berilgan bo‘lib, unda raqamli anonimlik va tarmoqli kommunikatsiya natijasida ijtimoiy institutlar tizimida “funksional deformatsiyalar” (real muloqot inqirozi, axborot pufaklari va ijtimoiy kapitalning zaiflashuvi) yuzaga kelishi aniqlangan;

raqamli jamiyatda shaxs va yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida kibermadaniyatning destruktiv xususiyatlari baholanib, virtual muhitdagi huquqbuzarlik, kiberjinoyatchilik va mafkuraviy manipulyatsiyalarning ijtimoiy-psixologik determinantlari hamda tarmoqli muhitda an’anaviy axloq normalarining zaiflashuvi – “kiber-anomiya” fenomeni sifatida ijtimoiy-falsafiy jihatdan dalillangan;

global tajriba va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ustuvorliklari integratsiyasi asosida, milliy kibermakonda ijtimoiy barqarorlik va kiberxavfsizlikni ta’minlashning konseptual poydevori sifatida texnik cheklovlarni ma’naviy-ma’rifiy immunitet bilan uyg‘unlashtiruvchi “raqamli gumanizm” modeli hamda virtual madaniyatni yuksaltirishning innovatsion profilaktik mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kibermakon va ijtimoiy hayotning o‘zaro ta’siri hamda raqamli transformatsiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida virtual muhitning inson xulq-atvori, qadriyatlari va kundalik hayot tarziga ta’sir etuvchi omillarini erta aniqlash va baholashga xizmat qiluvchi ijtimoiy kiberdiagnostika ko‘rsatkichlari taklif etilgan;

shaxs va yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida kiber-anomiya (virtual muhitda an’anaviy qoidalarning zaiflashuvi), madaniy deformatsiya va destruktiv axborot xurujlarini shakllantiruvchi omillarni aniqlash asosida ta’lim muassasalari, mahalla va ma’naviy-ma’rifiy tuzilmalar uchun profilaktik dasturlar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

milliy va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili natijasida raqamli jamiyatda kiberxavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning samarali boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha texnik va ma’naviy-ma’rifiy himoyani uyg‘unlashtiruvchi “raqamli gumanizm” innovatsion modeli va kompleks yondashuvlar tizimi taklif etilgan;

global kibermakonda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda raqamli madaniyat, virtual gigiyena va mafkuraviy immunitetni shakllantirish tamoyillariga asoslangan, fuqarolarning virtual muhitdagi ijtimoiy mas'uliyati, raqamli savodxonligi va kibertahdidlardan himoyalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, natijalarning respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Shuningdek, olingan ilmiy natijalar OAK ro‘yxatiga kirgan jurnallarda va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, kibermakon fenomeni va uning ijtimoiy hayot tizimlari bilan o‘zaro munosabatlari mexanizmlarining ijtimoiy-falsafiy asoslari tizimlilik va strukturaviy-funksionallik metodlari asosida tahlil etilib, raqamli voqelik sharoitida shaxs va jamiyat ijtimoiylashuvining institutsional, ma'naviy va axborot omillariga doir nazariyalarning “O‘zbekiston – 2030” va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyalarida belgilangan vazifalarga hamohangligi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tizimli tahlil qilinib, uning nazariy-metodologik asoslari boyitilganligi, inson xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir etuvchi kiber-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy, aksiologik va psixologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi, kibermakonda ijtimoiy barqarorlik va kiberxavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yangi konseptual yondashuv (ya'ni, “raqamli gumanizm” modeli) va ilmiy xulosalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning xulosalari, ishlab chiqilgan model va tavsiyalaridan raqamli jamiyat barqarorligini ta'minlash hamda yoshlar mafkuraviy immunitetini mustahkamlash amaliyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Jumladan, tadqiqot natijalari “O‘zbekiston – 2030” va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyalari doirasida jamiyatni raqamlashtirishning gumanitar va ijtimoiy xavfsizlik strategiyalarini, sohaviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda; Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda mahalla tuzilmalari faoliyatida – yoshlarni virtual makondagi mafkuraviy xurujlar, kibertahdidlar va axborot manipulyatsiyalaridan himoya qilishga qaratilgan maqsadli profilaktik dasturlar va metodik tavsiyalarni tayyorlashda hamda oliy ta'lim muassasalarida “Ijtimoiy falsafa”, “Ma'naviyatshunoslik”, “Madaniyatshunoslik”, “Axborotlashuv va mafkuraviy immunitet” va “Kibermadaniyat” kabi fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, maxsus kurslar va ma'ruza matnlarini yaratishda muhim amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar va yangiliklar amaliyotga tatbiq etilgan:

ijtimoiy borliqning virtuallashuvi kontekstida “kibermakon” fenomenining onto-aksiologik maqomi konseptuallashtirilib, uning texnik substrat emas, balki inson kundalik hayoti, bilish jarayonlari va qadriyatlar tizimini belgilovchi yangi ijtimoiy voqelik (raqamli sotsio-makon) ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslanganligiga doir ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetining “Zamonaviy tahdid va da’vatlar sharoitida O‘zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy-madaniy va aksiologik asoslari” mavzuidagi IL-4821091548 raqamli amaliy fundamental loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 9-maydagi 04/11-13415-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yoshlarda raqamli sotsio-makonning mohiyati haqidagi tizimli falsafiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyati kengaytirilgan;

kibermakon ta’sirida an’anaviy ijtimoiy institutlar (oila, ta’lim, ma’naviyat) funksiyalarining transformatsiyalashuv qonuniyatlari ochib berilgan bo‘lib, unda raqamli anonimlik va tarmoqli kommunikatsiya natijasida ijtimoiy institutlar tizimida “funksional deformatsiyalar” (real muloqot inqirozi, axborot pufaklari va ijtimoiy kapitalning zaiflashuvi) yuzaga kelishiga doir ilmiy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil uchun “2.3.Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘limi”da belgilangan “Yoshlarning keng qatlamlarini jalb etgan holda jamiyatga yot bo‘lgan g‘oyalar, axloqiy buzuqlik va salbiy illatlarga immunitetni mustahkamlash maqsadida “Har bir yoshning qalbi va ongi uchun kurashamiz!” shiori ostida ma’naviyat festivallarini tashkil etish” bandida belgilangan yo‘nalishi doirasidagi vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 11-iyundagi 4-16-21-4124-son ma’lumotnomasi). Natijada, shaxs va yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida kiber-anomiya (virtual muhitda an’anaviy qoidalarning zaiflashuvi), madaniy deformatsiya va destruktiv axborot xurujlarini shakllantiruvchi omillarni aniqlash asosida ta’lim muassasalari, mahalla va ma’naviy-ma’rifiy tuzilmalar uchun profilaktik dasturlar hamda metodik tavsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

raqamli jamiyatda shaxs va yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida kibermadaniyatning destruktiv xususiyatlari baholanib, virtual muhitdagi huquqbuzarlik, kiberjinoyatchilik va mafkuraviy manipulyatsiyalarning ijtimoiy-psixologik determinantlari hamda tarmoqli muhitda an’anaviy axloq normalarining zaiflashuvi – “kiber-anomiya” fenomeni sifatida ijtimoiy-falsafiy jihatdan dalillanganligiga doir ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetining “Zamonaviy tahdid va da’vatlar sharoitida O‘zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy-madaniy va aksiologik asoslari” mavzuidagi IL-4821091548 raqamli amaliy fundamental loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 9-maydagi 04/11-13415-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yoshlar o‘rtasida “kiber-anomiya” holatlarini erta aniqlash, destruktiv axborot xurujlarining ijtimoiy-psixologik omillarini baholash va raqamli muhitda

an’anaviy axloqiy qadriyatlarni himoya qilishning metodologik asoslari mustahkamlangan;

global tajriba va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ustuvorliklari integratsiyasi asosida, milliy kibermakonda ijtimoiy barqarorlik va kiberxavfsizlikni ta’minlashning konseptual poydevori sifatida texnik cheklovlarni ma’naviy-ma’rifiy immunitet bilan uyg‘unlashtiruvchi “raqamli gumanizm” modeli hamda virtual madaniyatni yuksaltirishning innovatsion profilaktik mexanizmlari ishlab chiqilganligiga doir amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (MTRK) “O‘zbekiston”, “Yoshlar” va “O‘zbekiston 24” telekanallarining tahliliy dasturlari media-rejalarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston MTRKning 2026-yil 04 maydagi 03-09-925-son ma’lumotnomasi). Natijada, “O‘zbekiston 24” telekanalining “Tahlilnoma” va “Studiya 24” ko‘rsatuvlari va tok-shoular ssenariylarini tayyorlashda dissertatsiyaning “raqamli gumanizm” modeli va virtual madaniyatni yuksaltirish mexanizmlariga oid xulosalari tatbiq etilib, keng jamoatchilik va yoshlar auditoriyasida kibermakondan foydalanishning madaniy-etik qoidalari va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish targ‘ibotining samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, shundan 3 tasi xalqaro, 3 tasi respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va usullari belgilangan, ilmiy yangiligi, natijalarning ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Kibermakon fenomenining nazariy-falsafiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kibermakon tushunchasining shakllanishi, falsafiy asoslari, ontologik maqomi, gnoseologik xususiyatlari va qadriyatlar tizimiga ta’siri ochib berilgan, “kiber” va “makon” kategoriyalarining antik davrdan zamonaviy kibernetika va axborot jamiyati nazariyalarigacha bo‘lgan evolyutsiyasi, kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari hamda milliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

“Kibermakon” (ingl. cyberspace) tushunchasi “cyber” va “space” qismlaridan iborat. “Kiber” so‘zi qadimgi yunoncha kybernetike – “kemani boshqarish san’ati” so‘ziga borib taqaladi. Platon “Davlat” dialogida davlatni boshqarishni kema boshqarishga o‘xshatgan bo‘lsa, Sharq falsafasida Forobiy va Ibn Sino ongni

boshqarish va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash g‘oyalarini ilgari surgan, Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida hukmdorni aql va hikmat bilan boshqaruvchi sifatida tasvirlagan. Demak, “kiber” boshqaruvning universal falsafiy modeli sifatida shakllangan, XX asrda esa N.Viner, K.Shennon, J.fon Neyman va A.Turing izlanishlari uni texnik va falsafiy mazmunda mustahkamlab, kibermakonni ilmiy-falsafiy muammoga aylantirgan. Falsafiy talqinda “kiber” tushunchasi mavjudlikning yangi shakllarini (ontologik), bilim va axborotni boshqarish mexanizmlarini (gnoseologik) hamda yangi qadriyatlarni (aksiologik) ifodalaydi.

Platon “Timey” dialogida makonni barcha narsalar joylashadigan “idish” (xora) sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Aristotel “Fizika” asarida uni jismning tashqi chegaralari majmui sifatida ta’riflagan[18]; bu qarash kibermakonni “axborot tashuvchi tizimlarning mavjudlik shakli” sifatida tushunishga asos yaratadi. Forobiy esa “Ilmlarning kelib chiqishi haqida” risolasida inson bilimini makon va zamon bilan bog‘lab talqin qiladi[19]. Antik va o‘rta asr falsafasidagi bu qarashlar kibermakon konsepsiyasining falsafiy ildizlari bo‘lib, kibermakon ham axborot va g‘oyalar joylashadigan muhit, munosabatlar majmui va bilishning shart-sharoiti sifatida namoyon bo‘ladi.

“Kibermakon” atamasi ilk bor 1982-yilda U.Gibsonning “Burning Chrome” hikoyasida qo‘llanilib, 1984-yilda nashr etilgan “Neuromancer” romani orqali ommalashgan. Muallif kibermakonni “har kuni dunyoning barcha mamlakatlaridagi milliardlab qonuniy operatorlar boshdan kechiradigan konsensual gallyutsinatsiya”[20] sifatida ta’riflab, uni virtual dunyo, insonlar o‘z ongini ulaydigan aloqa muhiti va ma’lumotlar oqimi joylashgan axborot maydoni sifatida tasvirlagan. Bu fantastik tasavvur bugun internet tufayli haqiqatga aylandi.

Kibermakonga hanuz yagona ta’rif berilmagan. M.Benedikt fikricha, u “inson yaratgan barcha virtual haqiqatlarning umumiy maydoni”[21] bo‘lib, faqat internet bilan cheklanmaydi. M.Poster uni “yangi ijtimoiy muloqot va madaniy amaliyotlarning sahnasi”[22], ya’ni kommunikativ-madaniy fenomen deb, M.Kastels esa iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarni o‘zgartiruvchi “axborot oqimlari tarmoqlarida shakllangan jamiyatning asosiy infratuzilmasi”[23] deb ta’riflaydi.

Kibermakonni o‘zbekistonlik olimlar ham faol tadqiq etmoqda. M.Jo‘rayev kibermakonni “milliy xavfsizlik va ma’naviy qadriyatlar shakllanadigan yangi ijtimoiy makon”[24] deb talqin qilib, uning asosiy xususiyatini davlat va jamiyat manfaatlari bilan global axborot oqimlari o‘rtasidagi ziddiyatlarda ko‘radi va uni axborot xavfsizligi, ma’naviy-axloqiy muammolar hamda davlat siyosati qirralarida tahlil qiladi. B.Ergashev esa kibermakonni “axborot oqimlari va kommunikatsiya tarmoqlari yig‘indisi”[25] sifatida ta’riflab, kiberjinoyatlar,

[18] Аристотель. Физика. – Москва: Мысль, 1983. – С. 102-118.
[19] Фаробий. Илмларнинг келиб чиқиши ҳақида. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 75-82.
[20] Gibson W. Neuromancer. – New York: Ace Books, 1984. – P. 51-72.
[21] Benedikt M. Cyberspace: First Steps. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – P. 87-104.
[22] Poster M. The Second Media Age. – Cambridge: Polity Press, 1995. – P. 44-59.
[23] Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – P. 45-63.
[24] Jo‘rayev M. Kibermakon va ijtimoiy xavfsizlik masalalari. – Toshkent: O‘zMU, 2021. – B. 214.
[25] Ergashev B. Axborot xavfsizligi va kibermakon tahdidlari. – Toshkent: TATU, 2022. – B. 186.

kiberterrorizm, mafkuraviy diversiyalar va axborot kolonializmini asosiy tahdidlar deb biladi.

Kibermakon insoniyat yaratgan, ammo mustaqil mavjudlik darajasiga ko‘tarilgan yangi “borliq” bo‘lgani uchun uni texnik infratuzilma yoki kommunikatsiya vositasigina emas, ontologik jihatdan tahlil qilish muhimdir. U ikki qatlamdan iborat: moddiy qatlam – kompyuterlar, serverlar, internet kabellari, mobil tarmoqlar va sun’iy yo‘ldosh tizimlaridan iborat texnik infratuzilma; nomoddiy qatlam – raqamli axborot, dasturiy ta’minot, virtual identitetlar, onlayn jamoalar va raqamli kontent. Shu bois kibermakon moddiy va nomoddiy dunyo o‘rtasidagi ko‘prikdir.

“Kibermakon ontologiyasi” atamasi amerikalik faylasuf D.Kepsell tomonidan 2000-yilda qo‘llanilgan[26]. Biz mohiyatan bir xil bo‘lgan kiberontologiya va kibermakon ontologiyasi tushunchalarini bir ma’noda qo‘llashni va “kibermakonning ontologik xususiyatlari” deb umumlashtirishni taklif qilamiz.

Kibermakonning ontologik, gnoseologik va aksiologik xususiyatlarini yaxlit tahlil qilish uning onto-aksiologik maqomini konseptuallashtirish imkonini bergan: kibermakon texnik substrat emas, balki inson kundalik hayoti, bilish jarayonlari va qadriyatlar tizimini belgilovchi yangi ijtimoiy voqelik – raqamli sotsio-makon ekanligi asoslangan. U ontologik jihatdan moddiy va nomoddiy qatlamlarning gibrid birligi, gnoseologik jihatdan bilim yaratish va tarqatishning yangi makoni, aksiologik jihatdan esa yangi qadriyatlarni vujudga keltiruvchi va an’anaviy qadriyatlarni transformatsiya qiluvchi muhitdir.

Dissertatsiyada kibermakonning tahdidlar maydoniga aylanishining obyektiv asoslari ham yoritilgan: u mislsiz imkoniyatlar bilan birga buzg‘unchi kuchlar uchun terroristik va ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qilish vositasiga aylanmoqda, kiberterrorizm esa an’anaviy terrorizmning raqamli shakli sifatida jamiyatni axborot tizimlari va ijtimoiy ong orqali izdan chiqarishga urinib, psixologik-ijtimoiy oqibatlar va global xavfsizlik uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tahdidlarning nazariy asosi sifatida E.Dyurkgeym va R.Merton anomiya nazariyalari hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida “kiber-anomiya” tushunchasi asoslangan. Kiber-anomiya – tarmoqli muhitda ijtimoiy, huquqiy va axloqiy me’yorlarning tartibga soluvchi funksiyasi zaiflashuvi bo‘lib, anonimlik va ijtimoiy nazorat susaygan sharoitda huquqbuzarlik, kiberjinoyatchilik, kiberbulling va mafkuraviy manipulyatsiyalar uchun ijtimoiy-psixologik zamin yaratadi. U alohida tahdid emas, balki kibermakonni destruktiv jarayonlar uchun qulay muhitga aylantiruvchi fundamental omil sifatida baholangan.

Shuningdek, kiberurushlar va kiberhujumlar ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid solishi ochib berilib, feyklar tarqatish, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish va vahima uyg‘otish bilan tavsiflanuvchi kiberpropagandaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlari tizimlashtirilgan. Ushbu transmilliy xavflarni bartaraf etishda texnologik va huquqiy choralar bilan birga aholining

[26] Koepsell D. The Ontology of Cyberspace: Philosophy, Law and the Future of Intellectual Property. Open Court, 2000. – P. 160.

media savodxonligi va axborot madaniyatini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligi falsafiy jihatdan asoslangan. Xullas, kibermakon real va virtual dunyolar uyg‘unlashuvi orqali insoniyatning mavjudlik, bilim va qadriyatlar tizimini qayta belgilab, zamonaviy jamiyatning yangi falsafiy paradigmasini shakllantirmoqda, uni chuqur o‘rganish esa falsafa fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

Dissertatsiyaning **“Kibermakon transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari va tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kibermakonning ijtimoiy evolyutsiyaga ta’siri, yangi ijtimoiy munosabatlar dinamikasi va jamiyat sohalarining raqamli transformatsiyasi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jarayonlarning kibermakondagi namoyon bo‘lish shakllari hamda kibermadaniyatni shakllantirishda oila, ta’lim va boshqa ijtimoiy institutlarning vazifalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Bobda raqamli anonimlik va tarmoqli kommunikatsiya ta’sirida an’anaviy ijtimoiy institutlar tizimida “funksional deformatsiyalar” – real muloqot inqirozi, axborot pufaklari va ijtimoiy kapitalning zaiflashuvi yuzaga kelishi aniqlangan. Shu asosda davlatning preventiv huquqiy kafolatchi, oilaning “raqamli ota-onalik” orqali farzandni tarmoqqa moslashtiruvchi, ta’lim muassasalarining kiberetika va media savodxonlikni shakllantiruvchi, OAVning ishonchli axborot manbai, diniy-axloqiy tashkilotlarning esa aksiologik yo‘naltiruvchi sifatidagi yangi funksiyalari asoslangan.

Kibermakondagi ijtimoiy hayot o‘zgarishlari quyidagi guruhlarga ajratilgan: ijtimoiy evolyutsiyaning tezlashuvi; inson va texnikaning integratsiyalashuvi; kibersotsial jamiyatning paydo bo‘lishi; noinstitutsional ijtimoiylashuvning shakllanishi; soxta voqeliklarning paydo bo‘lishi; sun’iy intellekt davriga o‘tish. Ijtimoiy evolyutsiyaning tezlashuvi insondan o‘zgarishlarni anglash, axborotni o‘tkazib yubormaslik, texnologik yutuqlardan foydalanish va yangi qonunlarga rioya qilishni talab etib, ikki xil natija beradi: ijobiy jihatdan texnologiyalar insonning tabiiy imkoniyatlari yetishmovchiligini to‘ldiradi, salbiy jihatdan esa jamiyatda tabaqalanish kuchayib, raqamli bilimga ega bo‘lmaganlar hayoti qiyinlashadi.

Bugungi kunda inson o‘z tafakkuri, idroki va ongini texnologik tizimlar bilan integratsiyalashtirmoqda, bu esa jamiyatning ijtimoiy strukturalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Kibermakon lingvistik transformatsiyalarga ham sabab bo‘lmoqda: texnologik mahsulotlarning asosan rivojlangan G‘arb davlatlarida yaratilishi lingvistik hukmronlikka olib kelib, ilmiy nashrlarda “kiber”, “online”, “digital”, “game” kabi so‘zlarning tarjimasiz qo‘llanilishi o‘zbek tili me’yorlarini saqlash vazifasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu bois tilshunoslar, faylasuflar va texnika fanlari mutaxassislari hamkorligida yangi raqamli lug‘at yaratish maqsadga muvofiq.

Kibermakon imkoniyatlarining eng so‘nggi bosqichi bo‘lgan sun’iy intellektni tushunishda an’anaviy texnik-funksional yondashuvlardan tubdan farq qiluvchi ontologik yondashuv shakllandi: u sun’iy intellekt mohiyatini inson

tushunchasidan yuqori bo‘lgan metafizik hodisa sifatida o‘rganadi[27]. Sun’iy intellekt davriga o‘tish iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlik va muammolarni hal qilish imkonini bersa-da, ishsizlik, axloqiy muammolar va nazoratni yo‘qotish kabi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda.

Kibermakon siyosiy tizimda ham inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqardi: XX asrda siyosiy kommunikatsiya asosan an’anaviy OAV orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, XXI asrda siyosiy jarayonlar markazi kibermakon tomon siljib, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki demokratik tamoyillarning chuqurlashuviga xizmat qilmoqda[28].

Bobda iqtisodiyot, ta’lim va ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat, ijtimoiy, davlat va siyosiy institutlarning kibermakondagi transformatsiyasi tahlil etilgan. Xususan, masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, virtual sinflar va ochiq ta’lim resurslari jahon ta’lim tizimida yangi paradigmaga asos solib, bilim olishni hududiy va moddiy cheklovlardan ozod qildi[29].

Kibermakonning eng murakkab sohasi kiberxavfsizlik va axborot urushlaridir: bugungi geosiyosatda davlatlar qudrati ularning kiberqudrati bilan ham belgilanmoqda, O‘zbekiston ham kibermakonni milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida ko‘rmoqda. Umuman olganda, kibermakon ikkiyoqlama xususiyatga ega: u demokratik jarayonlarni chuqurlashtirib, taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar ochish bilan birga global raqobat va axborot urushlarining yangi maydoniga aylanib, huquqiy, axloqiy va falsafiy muammolarni keskinlashtirmoqda. Bu siyosat falsafasini qayta ko‘rib chiqishni hamda davlat, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar hamkorligini taqozo etadi.

